

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TERMINLARNING LEKSIK SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xudoyorova Sitora

2-kurs magistranti (SamDCHTI)

Annotatsiya: Hozirgi kunda lug'at tarkibining asosini turli terminologik tizimlarsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Terminlarni o'rganishdan asosiy maqsad, ingliz va boshqa tillardan kelib tushayotgan so'zlarni o'zbek tilimizga mos keladigan so'zga almashtirish hamda tarjima qilishdir. Tilshunoslik orqali, biz bir necha tildagi terminlarning leksik – semantikasi va uning xususiyatlariga to'xtalamiz. Ushbu maqolada, ham ingliz va o'zbek tillarida oid terminlar, ularning leksik – semantik xususiyatlariga oid tahlillar turli adabiyotlardan foydalangan holda ochib bergan.

Kalit so'zlar:a tamalar, termin, leksik, semantik, pedagogika, tahlil, terminalogiya, pedagoglar, ta'lif, bilim, aql, ko'niqma, baholash, bilim daarajalari, ta'lif boshqichlari.

Abstract: Nowadays, it is difficult to imagine the basis of the vocabulary without various terminological systems. The main purpose of learning terms is to replace and translate words from English and other languages into words suitable for our Uzbek language. Through linguistics, we will focus on the lexical-semantics and its features of terms in several languages. In this article, the analysis of terms in English and Uzbek and their lexical-semantic features using various literature is revealed.

Key words: terms, term, lexical, semantics, pedagogy, analysis, terminology, pedagogues, education, knowledge, intelligence, skill, assessment, levels of knowledge, educational leaders.

Termin so'zi lotincha "terminus" - chek, chegara, chegara belgisi kabi ma'nolarga ega bo'lib, fan - texnika, boshqa sohaga oid narsa haqida aniq tushunchani ifodalarydigan ishlatalish doirasi shular bilan chegaralangan. A.Reformatskiyning terminga oid ta'rif berar ekan, "Terminlar - bu maxsus so'zlardir" degan xulosaga keladi.

V.P.Danilenkoning e'tirof etilishicha, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsiyon o'zgarishi oqibatida voqealanadi.¹

¹Хожиев А., Решетова Л. Узбек тили грамматик терминларининг кискача изохли лугати. -Тошкент,1980. – 256. Б.

Ushbu maqolada terminologik tizimga xos mavzuiy guruhlarni aniqlash, ularning tuzilish prinsiplari haqida tilshunoslar tomonidan bildirilgan fikrlarga to‘xtalib otmoqchimiz.

A.Reformatskiyni fikricha,—terminologiyadagi guruhlanish fan yoki sohaning sistemasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi va alohida paradigmatikani hosil qiladi. O‘zbek tilshunos olimi R.Doniyorov mavzuiy guruhlarni aniqlashning asosiy maqsadi nimalardan iborat ekanligini ko‘rsatib, asosiy uch maqsadni belgilab beradi:

1. o‘rganayotgan tizimning umumtermin boyligi haqida tasavvur hosil qilish;
2. o‘rganayotgan tizimning so‘z yasash imkoniyati haqida ma’lumot berish;

3. o‘rganayotgan tizimning har qaysi guruhdagi o‘ziga xos so‘z yasash modeli qanday ekanligini aniqlab berish.

Shuningdek, tilshunoslikning “semantika” deb nomlangan sohasi aynan “ma’noni o‘rganuvchi” hisoblanadi. Semantika (qadimgi yunoncha – “belgilovchi” - til birliklarining semantik ma’nosini o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limi. U tilda ma’noni qanday yaralishini tadqiq qiladi. Har bir so‘z lug’aviy ma’nosidan tashqari, kontekst tarkibida boshqa bir ma’nolardan ham qo‘llanilish qonuniyatları aniqlanadi. So‘z yoki matn mazmunan ma’lum ma’noga egaligi, uning ma’nosini tushunish va anglash demakdir. Semantika, nafaqat so‘zning qanday ma’no anglatishini, balki so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplar, tilda ma’no yasash uchun qanday birlashmalarini ham tadqiq qiladi. Bundan tashqari, ma’no nima haqida gapirayotganini tushunishning ham bir usuli hisoblanadi.

X. Xyuellning qayd etishiga ko‘ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo‘llanadigan so‘zlar yig‘indisidir. Biz terminlar ma’nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalami ham qayd etamiz.

Maqolamiz mavzusi “O‘zbek va ingliz tillarida terminlarning leksik semantik xususiyatlari” bo‘lgani hisobida o‘zbek va ingliz so‘zlaridagi ba’zi terminlarni tahlil qilamiz. Bunda ma’lum bir yo’nalishning maxsus so‘zlarini misol tariqasida ko’rib chiqamiz. Misol uchun, sport sohasidagi terminlar. T.Falla va P.A.Devisning “Solutions” kitobida sportga doir va boshqa faoliyatga doir bir qancha terminlar ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelmoqda, shular jumlasidan: *BMXing, skateboarding, cycling, hockey, badminton, martial arts, football* va hokazolar.

Agar, ingliz tilida “football” termini o‘zbek tiliga tarjima qilsak, oyoq to’pi deb tarjima qilinsa, unda biz hamma joyda ham sport turning bir turi sifatida og’zaki nutqda, gapirayotganimizda, misol: “Bolalar, kelinglar “oyoq to’pi”ga boraylik.” degan gapda, so‘zma- so‘z ingliz tili terminini ishlatib bo’lmaydi, o‘z ma’nosini yo’qotgan bo’ladi, shuning uchun ham sport terminining o’zi o‘zgarmagan holatda qollaniladi.

Bundan tashqari, *-ist*, *-ing*, *-er*, *-ation* suffikslari orqali sport terminlari hosil bo'ladi. Masalan: *- er*: *announcer*, *boxer*; *- ation*: *qualification*; *-ing*: *cycling*, *skateboarding*.

Sport terminologiyasida semantik so'z qurilishi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, bunga so'z birikmalarining quyidagicha yasalishi bilan misol keltirishimiz mumkin. Ikki so'zdan iborat so'z birikmali terminlar:

Martial arts – harbiy o'yinlar, sport jang san'ati

Ice skating- muzlikda konki

Horse riding - otta yurish kabi so'zlardan iborat so'z birikmalari, ingliz va o'zbek tillarini sport jang san'ati terminologiyasidan kundalik hayotga kirib boruvchi iboralar bilan boyitmoqda. Aholi yashash tarzidan kelib chiqib terminlarning ma'nosi har bir tilda so'z boyligiga qarab farqlanadi.

Termin asosini o'zak va yasovchi qo'shimchalar tashkil qiladi. Terminlarning kelib chiqishini aniqlashdagi qiziqish, avvalambor, ularning affiksal tarkibini ko'rib chiqishdan iborat bo'lgan. Ko'p hollarda ularning yunon, lotin, fransuz va Yevropaning boshqa tillaridan o'zlashtirilganligiga guvoh bo'lamiz. Asosan, ingliz tilida quyudagilar: *-er* (*worker, reader, teacher, writer, learner*), *-ing* (*writing, reading, speaking*), *-dom* (*wisdom*), *-ship* (*mastership*), Pedagogik atamalarda sifat yasovchi suffikslarni ham uchratishimiz mumkin: *-ish* (*English, Spanish*).

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, termin tushunchasi va ingliz tilida leksik-semantik tushunchasi tilshunoslikdagi o'rni, shuningdek terminlarining xususiyatlari haqida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'ldik. Yuqorida keltirilganidek, hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik-semantik bo'lishidan tashqari, so'z ma'nosi va yasalishi ham alohida soha sifatida o'rganilib kelinmoqda. Har qanday tildagi terminlar tizimi o'sha tilda so'zlovchi shaxslar uchun olamning lisoniy tasvirini yaratishda ishtiroy etadi. Ingliz tili terminologiyasi ingliz xalqining ta'lim va tarbiya konseptual dunyosini aks ettiradigan lisoniy tasvirni namoyon qiladi. O'zbeklar inglizlarning ta'lim-tarbiya tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun o'sha tasvir haqida, uning tuzilishi, komponentlari va u yerdag'i elementlarning funksional roli haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Хожиев А., Решетова Л. Узбек тили грамматик терминларининг кискача изохли лугати. -Тошкент, 1980. —256. Б.
- Turaeva, U. (2021). COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH LEGAL TERMS LEGAL LINGUISTICS: HISTORICAL FOUNDATIONS, BASIC CONCEPTS AND ASPECTS. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.6 Philological sciences).
- Арнольд И В Семантическая слона в современном английском языке и методика его исследования. —Л1956; Кубрякова Е С Семантика производного термина— Внутренняя структура языка Москва. 1972 .
- Хамидулло Д «Узбек терминологияси «Тошкент»